

## **MAKTAB O'QUVCHILARIGA EKOLOGIK-HUQUQIY TARBIYA BERISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIK TADBIRLARINING USULLARI.**

*Xolmuminova Oygul Jumayevna*

*Ter.DU. Katta o'qituvchi.RhD*

**Аннотация:** Har qanday jarayonda, o'quvchilarga ekologik-huquqiy tarbiya berish usullari ekologik-huquqiy tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni kelajak avlod uchun saqlash maqsadida komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan bo'ldi.

**Калит сўзлар:** O'rgatish ishontirish tushuntirish va uqtirish ibrat va namuna munozara.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida ta'kidlaganidek, qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha ustivor vazifa-avvalo, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishdir"<sup>1</sup>, -degan fikrlari, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi<sup>2</sup>, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>3</sup> qarori muhim ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda maktab o'quvchilariga ekologik-huquqiy tarbiyaga oid zamonaviy tushunchalarni shakllantirishning hayotiy asosi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilarda ekologik-huquqiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari borki, ularga amal qilish yoshlarga

ekologik-huquqiy tarbiya berishda samarali ta'sir ko'rsatadi. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

O'quvchilarga ekologik huquqiy ta'lim -tarbiya berishda turli shakl va usullardan usullardan foydalanish, uni ta'sirchanligini oshirib ekologik huquqiy tarbiya berish berish jarayonini mustahkamlaydi.

Shunday ekan, o'quvchilarga ekologik huquqiy tarbiya berishni bugungi kun talabi asosida olib borishda turli zamonaviy usul va shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayoni faqat pedagogik usul va uslublar orkali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogsiz va talabasiz hamda o'quv dastur va rejasiz dars o'tib bo'lmagan kabi, pedagogik usullar va uslublarsiz ham darsni amalga oshirib bo'lmaydi.

O'quvchilarni ekologik tarbiyalash jarayonida ma'naviy-intellektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq, maqsad va vazifalari ishlab chikish ham o'ta muhimdir. Unda o'kuvchilarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuk, va kamchiliklarini rag'batlantirish, tuzatish, tarbiya mazmunini, usul, uslub va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritilishi ko'zda tutiladi.

Umuman olganda o'quvchilarga ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya berish usullarini ikki qismga bo'lish mumkin, ya'ni:

- 1. O'quvchilarga ekologik-huquqiy tarbiya berish usullari.**
- 2. O'quvchilarga ekologik huquqiy ta'lim berish usullari.**

Fikrimizcha, bu ikki jarayon bir-biridan farq qilib, asosan yagona bir maqsadga qaratiladi.

O'quvchilarga ekologik-huquqiy tarbiya berish usullariga ijobjiy ekologik huquqiy xulq atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti, tabiatdagi o'rni, ekologiya va atrof tabiiy muhit bilan o'zaro bog'liqligi, ekologik qonun talablariga binoan o'z faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish jarayoni kiradi.

Umuman olganda, **ekologik-huquqiy tarbiya usuli** bu- o‘quvchilarda ona tabiat atrof-tabiyy muhitga nisbatan axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ekologik huquqiy ongi, ekologik huquqiy ma’naviyati va madaniyatiga ya’ni irodasiga ta’sir etish yo’llariga aytildi. Har qanday jarayonda, o‘quvchilarga ekologik-huquqiy tarbiya berish usullari ekologik-huquqiy tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni kelajak avlod uchun saqlash maqsadida komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Ekologik-huquqiy tarbiya usuli ham ekologik huquqiy ta’lim usuli<sup>4</sup> kabi pedagog o‘qituvchilarning ekologik huquqiy faoliyatidagina emas balki o‘quvchilarning ekologiya sohasidagi faol ishtirokini ham o‘zida namoyon etadi.

Fikrimizcha, ekologik-huquqiy tarbiyaviy usullarni tegishli vazifalariga qarab quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin bular: ekologik-huquqiy bilimlarni **o‘rgatish, ishontirish, ibrat-na’muna, tushuntirish va uqtirishdir**.

**O‘rgatish** usuli, yoshlarning tabiat bilan o‘zaro munosabatini, ilk marotabadagi ekologik huquqiy odob-axloq fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularni ekologik huquqiy munosabat, ekologiya va atrof - muhit bilan o‘zaro bog‘liqlik, ekologik qonunlar va boshqa normativ hujjatlar talabiga rioya qilish tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ekologik-huquqiy muhofaza qilish odobiga o‘rgatib borishni o‘z ichiga oladi.

**Ishontirish** usuli, yoshlarda ilmiy ekologik huquqiy dunyoqarash va ishonch e’tiqodini shakllantirish maqsadida ularning ekologik huquqiy ongi, his tuyg‘ulari va irodasiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatish usullari kiradi. Yoshlar hayotida ishontirishning ekologik-huquqiy tarbiyaviy jihatdan muhim va qimmatli bo‘lgan tushuntirib berish va ishontirish, tabiat to‘g‘risidagi hikoya va suhbat, ekologik-huquqiy o‘qish, na’muna ko‘rsatib ishontirish singari shakl va usullaridan keng foydalilanadi.

O'quvchilarni ekologik huquqiy tarbiyalashda ibrat na'muna usulidan kengroq foydalanish katta ahamiyatga egadir.

**Ibrat va na'muna** usuli yoshlar hayotida taqlidchilikka asoslanadi va boshqalarning ekologik huquqiy xulq atvorini, tabiat va uni boyliklaridan foydalanish foydalanish hamda muhofaza qilish jarayonidagi huquqiy ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlashdan iborat bo'ladi.

**Tushuntirish va uqtirish** usulida asosan o'quvchilarga ekologik-huquqiy tarbiyani olib borishda jamiyatning ma'naviy va moddiy hayotidagi eng muhim ekologik huquqiy voqe va hodisalar to'g'risida axborot berish asosida yoshlar diqqat-e'tiborini tevarak atrofdagi ekologik-huquqiy voqeylekka, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi o'z konstitusion burchiga ongli munosabatni shakllantirishga qaratishdan iborat bo'ladi.

**Munozara** darsi o'quvchilar jamoasining faol ishi bo'lib, uning asosiy vazifasi o'quvchilarga nazariy masalalarni tushunib yetishiga, amaliy ish faoliyatini ekologik-huquqiy normalari bilan bog'lashga, mavzu va ayrim savollar yuzasidan tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

**Mustaqil ekologik-huquqiy ta'lim-** o'qituvchi tomonidan amalga oshirilib u ekologik-huquqiy metodik materiallarda belgilangan tegishli savollarni mustaqil ravishda chuqr o'rghanishni, zarur ekologik-huquqiy axborotlarga ega bo'lishni, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni hamda o'r ganilayotgan ekologiyaga oid fanni mustaqil tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ekologik-huquqiy mavzuga oid uyda **mustaqil ish** yoki **referat** yozish o'quvchilarning o'quv izlanish ishlari doirasida-o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarni ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilishga oid alohida mavzularga ilmiy yondoshishni, ekologik-huquqiysohadagi qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishslashni, u yoki bu ekologik muammolarni hal qilishni ilmiy ekologik-huquqiy mushohada qilishga o'rgatadi. Maslahatlar o'qituvchilarning

navbatchilik ro‘yxati bo‘yicha tegishli ekologik-huquqiy o‘quv xonalarida o‘tkaziladi. O‘quv yili davomida o‘qituvchi barcha o‘quvchilarga, ayniqsa, “Atrofimizdagи olam”, “Tabiatshunoslik”, “Davlat va huquq asoslari” fanlaridan o‘quv materiallarini zaif o‘zlashtirayotgan o‘quvchilarga huquqiy ekologik maslahatlar berib boradi, shuningdek, munozara mashg‘ulotlariga qatnashmagan yoki javob bera olmagan o‘quvchilar bilan mavzuni mohiyatini kengroq tushuntirishni amalga oshiradi. Shuningdek, o‘quvchiga ekologik huquqiy-ta’limni keng qamrovligini ta’minlash maqsadida, ekologik qonunlarni va Yer to‘g‘risidagi kodeksni puxta o‘zlashtirishlarini ham maslahat berish lozim. Bulardan tashqari o‘quvchilarga ekologik-huquqiy ta’lim berishni bir qator (metod) usullaridan foydalanish ham, ulardagi ekologik huquqiy ta’lim va tarbiya jarayonini ancha mustahkamlaydi. O‘quvchi-yoshlar o‘rtasida ekologik-huquqiy ta’limni olib borish asosan o‘qitishning **induktiv** va **deduktiv** metodiga tayanadi. O‘qitishning induktiv va deduktiv metodlari-o‘quv materiallari mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usuli bo‘lib, pedagogik ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin.-T.: O‘zbekiston, 1998.17-bet.
- 2.Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi.//Xalq so‘zi,2017 yil 13 iyul
- 3.Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-2021 yillarda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” –T.: O‘zbekiston,2017 y.
- 4.Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitidagi nutqi.//Xalq so‘zi, 2017 yil 11 sentyabr
- 5.Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.//Xalq so‘zi, 2017 yil 20 sentyabr